



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Umumiy o'rta ta'lismaktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lism to'g'risida"gi 637-son Qonuni va Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lism to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagisi 140-son qarori va Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli topshirig'iga muvofiq, umumta'lism fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lism maktablari uchun tayanch o'quv rejani tasdiqlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

ta'lism o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lism maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

ta'lism rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lism maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Joriy o'quv yilidan boshlab, umumiy o'rta ta'lism maktablarining 1-sinfida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy etilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (A.Narimbetov) hududidagi umumiy o'rta ta'lism maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini ishlab chiqsin hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

4. Respublika ta'lism markazi (Sh.Sattarov)ga:

bir oy muddatda tayanch o'quv reja asosida tegishli taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish;

bir hafta muddatda 1-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasi, o'quv dasturi, davlat ta'lism standartlari va taqvim-mavzu rejalarini amaliyatga tatbiq etish bo'yicha vazirlikka taklif kiritsin.

5. A.Avloni nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutiga:

boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun 1-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari fani"ni zamonaviy metodikalar asosida o'qitish va o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarining dasturini ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lismaktablaridagi 1-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitadigan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qisqa muddatli o'quv kurslariga qamrab olish grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2023-yilning 25-avgustiga qadar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish;

o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan o‘qituvchilarga sertifikat berilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan qisqa muddatli o‘quv kurslari bo‘yicha dastur asosida 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvini tashkil etsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy qilinishi munosabati bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uchun tashkil etiladigan qisqa muddatli o‘quv kurslarida ishtirok etishlarini ta’minlash;

2023-2024-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklamalari tarifikatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

2023-yilning 30-avgustiga qadar 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadagi yangiliklar va tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini har bir ta’lim muassasasiga yetkazish hamda pedagogik kengash yig‘ilishlarida targ‘ibot ishlarini tashkil etish vazifalari topshirilsin.

8. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv rejani bajarish va natijalarini tahlil etib borish ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda ta’lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas’ul etib belgilansin.

9. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 24-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 414-sonli buyrug‘i 2023-yil 1-iyuldan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 15-may,
125-son

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun
 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja**

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
I.	Filologiya fanlari	10	11	11	11	11	11	10	10	10	9	9	113
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	6	6	5	5	5	4	4	64
2	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	20
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	29
II.	Ijtimoiy fanlar	1	1	1	1	3	3	4	5	5	4	4	32
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	17
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	4
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
III.	Aniq fanlar	6	5	5	5	6	6	6	6	7	7	7	66
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	55
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1				1	1	1	1	2	2	2	11
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	1	2	2	2	2	3	8	8	8	8	8	52
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	11
10	Kimyo							2	2	2	2	2	10
11	Biologiya					1		2	2	2	2	2	11
12	Geografiya va iqtisodiyot					1		2	2	2	2	1	10
13	Tabiiy fan (Science)	1	2	2	2		3						10
V.	Amaliy fanlar	4	5	5	5	6	6	6	4	4	3	3	51
14	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
15	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			9
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	21
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	2
Jami		22	24	24	24	28	29	34	33	34	31	31	314

**Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun
2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga
tushuntirish xati**

I. Asosiy tamoyillari

1. 2023-2024-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi:

kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

kommunikativlik – muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;

kreativ fikrlash – o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish;

tanqidiy fikrlash – o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish.

II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

2. Tayanch o‘quv rejada “**Ona tili va adabiyot**” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o‘quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 4 soat “Alifbe”, 4 soat “Yozuv”, 3-4-choraklarida 8 soat “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

2-4-sinfda haftasiga 4 soat “Ona tili”, 3 soat “O‘qish” fani;

5-6-sinflarda haftasiga 4 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

7-8-sinflarda haftasiga 3 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

9-sinfda haftasiga 2 soat “Ona tili” va 3 soat “Adabiyot” fani;

10-11-sinflarda haftasiga 2 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani o‘qitiladi.

3. Chet tili fani bo‘yicha:

umumta’lim maktablarida xorijiy (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istiklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, ota-onalar qo‘mitasi ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istiklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnomasi bilan ta’lim muassasasining pedagogika kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining pedagogika kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

4. “Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani 1 soatdan o‘qitiladi.

5. “Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan;

7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

6. “Informatika va axborot texnologiyalari” fani O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 10-oktabrdagi “Zamonaviy maktab darsliklarini tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda maktab ta’limi sifatini oshirish to‘g‘risida”gi 14-sonli bayoni, Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli xatiga muvofiq “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinfdan boshlab o‘qitish belgilandi.

Mazkur bayon ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-2024-o‘quv yildan 1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qitilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Unga ko‘ra, 1- va 5-8-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 9-11-sinflarda haftasiga 2 soat o‘qitiladi.

1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadi.

7. “Fizika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda “Fizika” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Astronomiya” fani haftasiga 1 soat o‘qitiladi.

8. “Geografiya va iqtisodiyot” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-10-sinflarda 2 soatdan.

Bunda, 8-9-sinflarda uchun 0,5 soatdan “Iqtisodiy bilim asoslari” faniga ajratiladi hamda 8-9-sinflarda “Iqtisodiy bilim asoslari” fani mavzulari fan o‘qituvchisi tomonidan tig‘izlashtirilgan (mavzularni qo‘shgan) holda o‘tiladi va ushbu tig‘izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko‘rsatiladi.

11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soat o‘qitiladi.

9. “Tabiiy fan (Science)” fani 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-4-sinfda 2 soat, 6-sinfda 3 soat o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdag‘i PQ-4805-soni “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2020-2025-yillarda kimyo va biologiya yo‘nalishida uzlusiz ta’lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur”ining 6-bandida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o‘rniga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida 2021-2022-o‘quv yildan boshlab tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish” vazifasi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan ushbu fan bosqichma-bosqich joriy qilinib borilmoqda.

Tabiiy fan (science) dars soatlari boshlang‘ich sinfda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (rahbarlari), 6-sinfda A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilariga O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyundagi 8-mh, 28- va 124/1-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ning (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3271*) 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

10. “Tasviriy san’at va chizmachilik” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;
8-9-sinflarda “Chizmachilik” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagи “Umumiyl o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qaroriga muvofiq:

malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining 1-11-sinflarida “Chet tili” fani, ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari va umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan fan, 3-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari”, 2-11-sinflarida “Rus tili”, 8-11-sinflarda “Jismoniy tarbiya”, 5-9-sinflarda “Texnologiya” fanlari ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

12. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:
o‘quv yilining davomiyligi – 34 hafta (1-sinflar uchun 33 hafta);

o‘quv haftasining davomiyligi – 1-4-sinflarda 5 kun, 5-11-sinflarda 6 kun;
dars mashg‘ulotining davomiyligi - 45 daqiqa;

dars mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus davomiyligi - 5-10 daqiqa (o‘quv kuni o‘rtasidagi tanaffusning davomiyligi - 15-30 daqiqa).

13. Tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarida dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to‘g‘ri kelib qolgan dars mashg‘ulotlarining mavzulari o‘quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg‘ulotlarida o‘tiladi.

14. O‘quv yili davomidagi ta’tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta’til – 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

qishki ta’til – 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

bahorgi ta’til – 21- martdan boshlab 7 kalendar kuni;

yozgi ta’til - oxirgi bosqichli nazorat sinovi o‘tkazilgan kundan (bosqichli nazorat o‘tkazilmaydigan sinflar uchun o‘quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 1-sentabrgacha.

Ta'tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolgan taqdirda, dars mashg'ulotlari keyingi ish kundan boshlab davom ettiriladi.

1-sinf o'quvchilari uchun fevral oyidagi davomida qo'shimcha bir haftalik ta'til beriladi.

15. Mazkur tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiyl o'rta ta'lim muassasasi 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv reja ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik Kengashining qarori bilan tasdiqlaydi.

16. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining Pedagogik Kengashlarida o'quv rejani tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiyl soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

17. Barcha turdag'i davlat umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'lim **rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari
 uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja**

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
I.	Filologiya fanlari	10	11	11	11	11	11	10	10	10	9	9	113
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	5	5	4	4	4	3	3	57
2	O'zbek tili/Rus tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	27
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	29
II.	Ijtimoiy fanlar	1	1	1	1	3	3	4	5	5	4	4	32
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	17
5	Davlat va huquq asoslari									1	1	1	4
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
III.	Aniq fanlar	6	5	5	5	6	6	6	7	7	7	7	66
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	55
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1				1	1	1	1	2	2	2	11
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	1	2	2	2	2	3	8	8	8	8	8	52
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	11
10	Kimyo							2	2	2	2	2	10
11	Biologiya					1		2	2	2	2	2	11
12	Geografiya va iqtisodiyot					1		2	2	2	2	1	10
13	Tabiiy fan (Science)	1	2	2	2		3						10
V.	Amaliy fanlar	4	5	5	5	6	6	6	4	4	3	3	51
14	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
15	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			9
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	21
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	2
Jami		22	24	24	24	28	29	34	33	34	31	31	314

**Ta’lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun
2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati**

I. Asosiy tamoyillari

2023-2024-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi:

kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

komunikativlik – muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;

creativ fikrlash – o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish;

tanqidiy fikrlash – o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish.

II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

2. Tayanch o‘quv rejada “**Ona tili va adabiyot**” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o‘quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 4 soat “Alifbe”, 4 soat “Yozuv”, 3-4-choraklarida 8 soat “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

2-4-sinfda haftasiga 4 soat “Ona tili”, 3 soat “O‘qish” fani;

5-6-sinflarda haftasiga 3 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

7-9-sinflarda haftasiga 2 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

10-11-sinflarda haftasiga 1 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani o‘qitiladi.

3. Tayanch o‘quv rejada “**O‘zbek tili/rus tili**” fani uchun 2-4-sinflarda haftasiga 2 soatdan, 5-11-sinflarda haftasiga 3 soatdan ajratilgan bo‘lib, ushbu fanlar quyidagi taqsimot asosida o‘qitiladi:

ta’lim **rus** va **qardosh** tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalarida “O‘zbek tili” fani 2-4-sinflarda 2 soatdan, 5-11-sinflarda 3 soatdan o‘qitiladi;

ta’lim **qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman** tillarida olib boriladigan maktablarda “Rus tili” fani o‘quvchilar va ota-onalar (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ning xohishi (qarori)ga ko‘ra, 2-sinfdan boshlab “Ona tili va adabiyot” fanidan 1 soat olinib o‘qitilishi mumkin.

4. Chet tili fani bo‘yicha:

umumta’lim maktablarida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istiklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, ota-onalar qo‘mitasi ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istiklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnomasi bilan ta’lim muassasasining pedagogika kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining pedagogika kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

5. “Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani 1 soatdan o‘qitiladi.

6. “Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan;

7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

7. “Informatika va axborot texnologiyalari” fani O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 10-oktabrdagi “Zamonaviy maktab darsliklarini tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda maktab ta’limi sifatini oshirish to‘g‘risida”gi 14-sonli bayoni, Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli xatiga muvofiq “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinfdan boshlab o‘qitish belgilandi.

Mazkur bayon ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-2024-o‘quv yilidan 1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qitilishi yo‘lga qo‘yiladi.

1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Unga ko‘ra, 1- va 5-8-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 9-11-sinflarda haftasiga 2 soat o‘qitiladi.

Bunda, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadi.

8. “Fizika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda “Fizika” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Astronomiya” fani haftasiga 1 soat o‘qitiladi.

9. “Geografiya va iqtisodiyot” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-10-sinflarda 2 soatdan.

Bunda, 8-9-sinflarda uchun 0,5 soatdan “Iqtisodiy bilim asoslari” faniga ajratiladi hamda 8-9-sinflarda “Iqtisodiy bilim asoslari” fani mavzulari fan o‘qituvchisi tomonidan tig‘izlashtirilgan (mavzularni qo‘shgan) holda o‘tiladi va ushbu tig‘izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko‘rsatiladi.

11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soat o‘qitiladi.

10. “Tabiiy fan (Science)” fani 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-5-sinfda 2 soat, 6-sinfda 3 soat o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagি PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2020-2025-yillarda kimyo va biologiya yo‘nalishida uzlusiz ta’lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur”ining 6-bandida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o‘rniga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida

2021-2022-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish” vazifasi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan ushbu fan bosqichma-bosqich joriy qilinib borilmoqda.

Tabiiy fan (science) dars soatlari boshlang‘ich sinfda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (rahbarlari), 6-sinfda A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilariga O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyundagi 8-mh, 28- va 124/1-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ning (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3271*) 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

11. “Tasviriy san’at va chizmachilik” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

8-9-sinflarda “Chizmachilik” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagи “Umumiyo‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qaroriga muvofiq:

malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiyo‘rta ta’lim muassasalarining 1-11-sinflarida “Chet tili” fani, ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiyo‘rta ta’lim muassasalari va umumiyo‘rta ta’lim maktabalarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan fan, 3-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari”, 2-11-sinflarida “Rus tili”, 8-11-sinflarda “Jismoniy tarbiya”, 5-9-sinflarda “Texnologiya” fanlari ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

13. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:
o‘quv yilining davomiyligi – 34 hafta (1-sinflar uchun 33 hafta);
o‘quv haftasining davomiyligi – 1-4-sinflarda 5 kun, 5-11-sinflarda 6 kun;
dars mashg‘ulotining davomiyligi - 45 daqiqa;
dars mashg‘ulotlari oraliq‘idagi tanaffus davomiyligi - 5-10 daqiqa (o‘quv kuni o‘rtasidagi tanaffusning davomiyligi - 15-30 daqiqa).

14. Tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarida dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to‘g‘ri kelib qolgan dars mashg‘ulotlarining mavzulari o‘quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg‘ulotlarida o‘tiladi.

15. O‘quv yili davomidagi ta’tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:
kuzgi ta’til – 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;
qishki ta’til – 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

bahorgi ta'til – 21- martdan boshlab 7 kalendar kuni;
yozgi ta'til - oxirgi bosqichli nazorat sinovi o'tkazilgan kundan (bosqichli nazorat
o'tkazilmaydigan sinflar uchun o'quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 1-
sentabrgacha.

Ta'tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolgan
taqdirda, dars mashg'ulotlari keyingi ish kundan boshlab davom ettiriladi.

1-sinf o'quvchilari uchun fevral oyidagi davomida qo'shimcha bir haftalik ta'til
beriladi.

16. Mazkur tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiyligi o'rta
ta'lim muassasasi 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv reja ishlab chiqadi
va avgust oyidagi Pedagogik Kengashining qarori bilan tasdiqlaydi.

17. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining Pedagogik Kengashlarida o'quv rejani
tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiyligi soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir
fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi
beriladi.

18. Barcha turdagisi davlat umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja
asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budgeti mablag'lari hisobidan
amalga oshiriladi.